

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING  
QARORI**

**YO‘LOVCHI AVTOTRANSPORTIDA FAVQULODDA VAZIYATLAR  
PROFILAKTIKASI VA ULARNING OLDINI OLISH, SHUNINGDEK, O‘ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI DAVLAT CHEGARASIDAN TASHQARIGA CHIQUADIGAN  
FUQAROLAR XAVFSIZLIGINI TA‘MINLASHGA DOIR SHOSHILINCH CHORA-  
TADBIRLAR TO‘G‘RISIDA**

2018-yil 18-yanvar kuni Qozog‘iston Respublikasi Aktyubinsk viloyatining Irgizsk tumanidagi “Qaliboy” aholi punktidan 10 kilometr uzoqlikda, “Samara-Chimkent” avtomobil yo‘lining 1068 kilometrda “Ikarus” rusumidagi yo‘lovchi avtobusi yonib ketdi. Yong‘in oqibatida qurbonlar va jabrlanganlar bor. Ularning 55 nafari O‘zbekiston Respublikasining fuqarosidir.

Isitish moslamasi bo‘lmagan avtobusning texnik nosozligi, unda tez yonuvchi moddalarning bo‘lgani, yong‘inga qarshi uskunalarning foydalanishga yaroqsizligi, avtobusda ortiqcha yo‘lovchilar bo‘lgani, salonning yuklar bilan to‘ldirilgani, xavfsizlikning oddiy qoidalariga rioya etish bo‘yicha profilaktika choralarining yo‘qligi avtobus yonishining asosiy sabablari bo‘lgan.

Yo‘lovchi avtotransportida favqulodda vaziyatlar profilaktikasi va ularning oldini olish, bundan buyon bu kabi fojiali voqealar takrorlanishiga yo‘l qo‘ymaslik, baxtsiz hodisalar va yo‘l-transport halokatlari yuzaga kelishini bartaraf etish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Davlat chegarasidan tashqariga chiqadigan fuqarolar xavfsizligini ta‘minlash yuzasidan kompleks shoshilinch chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasidan tashqariga yo‘lovchi tashuvchi avtomobil transportida O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha Respublika komissiyasi (keyingi o‘rinlarda komissiya deb ataladi) **1-ilovaga** muvofiq tarkibda tuzilsin.

Quyidagilar Komissiyaning asosiy vazifalari etib belgilansin:

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining xorijga chiqish tartibining buzilishiga olib keluvchi shart-sharoitlarni tizimli o‘rganish hamda ularning oldini olish, mehnat migratsiyasi jarayonlarini takomillashtirishga doir kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

xorijga chiqayotgan fuqarolar o‘rtasida transportda harakatlanish vaqtida xavfsizlik choralari, xorijiy davlatda bo‘lish qoidalari, shaxsiy xavfsizlik bo‘yicha zarur choralar, fuqarolarning huquqlari va majburiyatlari to‘g‘risida doimiy tushuntirish ishlari o‘tkazilishini tashkil qilish;

aholi o‘rtasida yo‘lovchi avtomobil transportida favqulodda vaziyatlarning oldini olish chora-tadbirlari haqida tushuntirish ishlarini kuchaytirish, respublikadan tashqariga tovarlarning noqonuniy olib o‘tilishiga, yo‘lovchi avtomobil transporti salonida yong‘indan xavfli, portlovchi, zaharli, badbo‘y, radioaktiv moddalar va buyumlar, shuningdek, o‘qotar va tig‘li qurollar olib o‘tilishiga yo‘l qo‘ymaslik va ularning oldini olish yuzasidan zarur choralar ko‘rish;

zarurat bo‘lganda, davlat-xususiy sheriklik sharoitida xalqaro avtobus qatnovlarini tashkil etish, yo‘lovchilar xavfsizligini ta‘minlash choralarini ko‘rish;

xorijga chiqadigan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining xavfsiz harakatlanishini ta‘minlash, xorijda bo‘lish va mehnat faoliyatini amalga oshirish masalalari bo‘yicha xorijiy davlatlar vakolatli organlari bilan o‘zaro hamkorlik qilish.

2. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari, hududlardagi sektorlar rahbarlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vaziriga fuqarolarning xorijiy davlatlarga mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun uyushqoqlik bilan chiqishini ta‘minlash, noqonuniy chiqishga yo‘l qo‘ymaslik, shuningdek, mehnat migratsiyasi sohasidagi qonunchilikka rioya etilishi bo‘yicha shaxsiy mas‘uliyat yuklansin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi hududlardagi sektorlar rahbarlari va Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha respublika kengashi bilan birgalikda xorijiy davlatlarda mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun fuqarolar guruhlarini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda shakllantirish va yuborish bo‘yicha tizimli nazorat o‘rnatilsin.

4. Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularning profilaktikasi, shuningdek, xorijga ketayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining xavfsizligini ta'minlash bo'yicha doimiy faoliyat ko'rsatuvchi hududiy ishchi guruhlarning (keyingi o'rinlarda ishchi guruh deb ataladi) namunaviy tarkibi [2-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

5. Quyidagilar ishchi guruhlarning asosiy vazifalari etib belgilansin:

tegishli suhbatlar va so'rovlar o'tkazish, O'zbekiston Respublikasi Davlat chegarasi orqali o'tkazish punktlarida suhbatlashishga alohida e'tibor qaratish yo'li bilan fuqarolarning ketish maqsadlarini aniqlash;

mamlakatdan tashqariga chiqadigan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan yo'lovchi avtomobil transportida (mikroavtobuslar va avtobuslar) harakatlanishda xavfsizlik qoidalari hamda xorijda bo'lish qoidalari rioya etish to'g'risida tushuntirish ishlari va instruktaj o'tkazish;

O'zbekiston Respublikasida ro'yxatga olingan yo'lovchi avtomobil transportida O'zbekiston Respublikasidan tashqariga chiqishda — transport vositasining yo'lga chiqishdan oldin texnik ko'rikdan va haydovchining tibbiy ko'rikdan o'tganligini, haydovchilarning avtobus yo'nalishlari sxemalari, shuningdek, yo'lda ob-havo sharoitlari, yo'llarning o'zgarishi va yo'lda harakatlanishni tashkil qilish to'g'risidagi axborot bilan ta'minlangani, avtobuslar va mikroavtobuslarning texnik soz holatda ekani, tegishli litsenziya kartochkalari mavjudligini puxta tekshirish;

O'zbekiston Respublikasida ro'yxatga olinmagan yo'lovchi avtomobil transportidan O'zbekiston Respublikasidan tashqarida foydalanishda — yo'lovchini xorijiy tashuvchining transport vositasini tegishli texnik va sanitariya holatida belgilangan joyga o'z vaqtida qo'yish bo'yicha majburiyatlari, yo'lovchining majburiyatlari va huquqlari, shu jumladan ko'rsatiladigan xizmatlar ro'yxati va sifati, ularni ko'rsatish shartlari va harakatlanish yo'nalishi haqidagi aniq axborotni o'z vaqtida olish, unga va uning yukiga yetkazilgan zarar yoki ziyonni qoplashni talab qilish huquqi to'g'risida xabardor qilish. Haydovchi transport vositasining texnik holati haqida axborot taqdim etmaganda va yo'lovchida ko'zdan kechirish natijasida avtobus yoki mikroavtobusning texnik nosoz ekaniga shubha tug'ilganda, yo'lovchini ketish fikridan qaytarish;

amalgam oshirilgan ishlar to'g'risidagi axborotni har oyda umumlashtirish va Komissiyaga taqdim etish.

6. Davlat chegarasidan o'tkazish punktlari Chegaradosh davlatlar bilan o'tkazish punktlari to'g'risida hukumatlararo bitimlarda ([Qozog'iston Respublikasi bilan 2001-yil 16-noyabrdagi](#), [Turkmaniston Respublikasi bilan 2007-yil 18-oktabrdagi](#), [Qirg'iziston Respublikasi bilan 2004-yil 24-iyuldagi](#) va [Tojikiston Respublikasi bilan 2002-yil 12-fevraldagi](#)) nazarda tutilgan sharoitlarda, shu jumladan [3-ilovaga](#) muvofiq Davlat chegarasidan avtomobillarni o'tkazish punktlari faoliyat ko'rsatishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

7. Belgilansinki, 2018-yilning 1-fevralidan boshlab, yo'lovchilar bilan Davlat chegarasidan tashqariga chiqadigan avtobuslar va mikroavtobuslar yo'lga chiqishdan oldin O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Yo'l harakati xavfsizligi davlat xizmati tomonidan Yong'in xavfsizligi davlat xizmati vakillarini jalb etgan holda, avtotransport vositalarining harakatlanish ro'yxati hamda jadvaliga muvofiq texnik ko'rikdan o'tkaziladi.

8. O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi:

avtovokzallar va avtostansiyalarning ruxsat berish talablari va shartlariga rioya etishi bo'yicha nazoratni kuchaytirsin, bunda tashish xavfsizligi va yong'in xavfsizligi, texnika xavfsizligiga rioya etilishi, yo'lga chiqishdan oldin avtotransport vositalarini texnik ko'rikdan va haydovchilarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish yuzasidan talablar bajarilishi, faqat litsenziya kartochkalariga ega avtotransport vositalariga xizmat ko'rsatilishiga alohida e'tibor qaratsin;

hududiy boshqarmalar inspektorlarining tashish xavfsizligi va yong'in xavfsizligi talablariga rioya etilishini, avtomobil transportida yo'lovchi va yuk tashiydigan avtotransport vositalarining litsenziya kartochkalari mavjudligi, haydovchilarning mehnat va dam olish rejimiga rioya etishini nazorat qilish bo'yicha faoliyatini faollashtirsin;

O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Ichki ishlar vazirligi bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasidan tashqariga chiqadigan O'zbekiston Respublikasi

fuqarolarining borishi zarurligini inobatga olib, chegaradosh davlatlar bilan xalqaro yo‘llarda muntazam yo‘lovchi avtobus qatnovlarini tashkil etish to‘g‘risida bir oy muddatda Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritsin.

9. O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi mamlakat ichida va tashqarisida sayyohlar guruhlarini tashkil etishda transportda harakatlanish chog‘ida xavfsizlik qoidalariga rioya etish bo‘yicha asosiy talablar, xorijda bo‘lganda fuqarolarning huquqlari va majburiyatlari to‘g‘risida doimiy tushuntirish ishlari o‘tkazilishini ta‘minlasin.

10. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi:

chegaradosh davlatlarning tegishli vazirlik va idoralari bilan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini noqonuniy tashish va ular ishtirokida baxtsiz holatlarning oldini olish maqsadida borgan mamlakatda avtotransport vositalarida xavfsizlik standartlari va talablarini takomillashtirish yuzasidan o‘zaro hamkorlikni ta‘minlasin;

borgan mamlakatida ro‘y bergan hodisa oqibatida jabrlangan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolariga O‘zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalarini hamda konsullik muassasalari tomonidan shoshilinch yordam ko‘rsatish choralari ko‘rish mexanizmini ikki hafta muddatda ishlab chiqsin.

11. O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi va Tashqi ishlar vazirligi daxldor vazirlik hamda idoralar bilan birgalikda Qozog‘iston Respublikasining Aktyubinsk viloyatida yo‘lovchi avtotransportida ro‘y bergan favqulodda vaziyat oqibatida jabrlangan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolariga yordam ko‘rsatish ishlarini tashkil etishda o‘zaro hamkorlik tajribasini hisobga olib, Xorijiy davlatlar hududida favqulodda vaziyatlar oqibatida jabrlangan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolariga yordam ko‘rsatish tartibi to‘g‘risidagi nizom loyihasini bir oy muddatda ishlab chiqsin va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga tasdiqlash uchun belgilangan tartibda kiritsin.

12. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi:

O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi tomonidan xorijda ishga joylashtirish uchun tanlash va yollash tashkil etilgani to‘g‘risida fuqarolarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib hamda “sms” xabarlar yuborish orqali keng xabardor qilish ishlarini faollashtirsin;

O‘zbekiston Respublikasidan tashqariga vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun chiqadigan respublika fuqarolari uchun eslatmani (keyingi o‘rinlarda Eslatma deb ataladi) bir hafta muddatda ishlab chiqsin va tasdiqlasin, unda quyidagilar nazarda tutilsin:

transportda harakatlanishda xavfsizlik qoidalariga rioya etishning asosiy talablari, xorijiy davlatda bo‘lish qoidalarini, xorijga chiqadigan fuqarolarning huquqlari va majburiyatlari;

O‘zbekiston Respublikasi Tashqi migratsiya agentligi va huquqni muhofaza qilish organlarining ishonch telefonlari va veb-saytlari elektron manzillari, O‘zbekiston Respublikasining vakolatli davlat organlari, shuningdek, boshqa davlatlar hududidagi O‘zbekiston Respublikasi elchixonalarini va konsullik xizmatlarining telefonlari ko‘rsatilgan holda, odam savdosi holatlari to‘g‘risida xabardor qilish zarurligi haqida ogohlantirish.

Bunda ishchi guruhlarni O‘zbekiston Respublikasining xorijga ketayotgan har bir fuqarosiga berish uchun yetarli miqdorda Eslatmalar bilan ta‘minlasin.

13. O‘zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmatining Davlat chegaralarini himoya qiluvchi qo‘mitasi hamda Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi harakatlanish chog‘ida, xorijda bo‘lish vaqtida o‘zini tutish qoidalarini, xavfsizlik choralari, xorijiy davlatda favqulodda vaziyatlarga tushgan fuqarolarga yordam ko‘rsatadigan organlarning ishonch telefonlari haqidagi axborot aks ettirilgan stendlar o‘tkazish punktlarida joylashtirilishini tashkil qilsin.

14. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi “O‘zbekiston havo yo‘llari” MAK va “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati bilan birgalikda xorijda ish bilan ta‘minlash uchun O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini tanlash va yollashni tashkil etishda Tashqi mehnat migratsiyasi agentligining markazlashtirilgan buyurtmanomalarini asosida aviatsiya va temir yo‘l transportida tashish uchun avia hamda temir yo‘l chiptalarini imtiyozli tariflar bo‘yicha

rasmiylashtirish nazarda tutilgan Idoralararo bitimni ikki hafta muddatda ishlab chiqsin va tasdiqlasin.

15. “O‘zbekiston havo yo‘llari” MAK va “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi bilan birgalikda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun respublikadan tashqariga chiqadigan fuqarolar o‘rtasida ehtiyoj bo‘lgan yangi yo‘nalishlarni tashkil etish yuzasidan bir oy muddatda Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin, bunda:

charter qatnovlarni amalga oshirishni va harakatdagi temir yo‘l tarkibi sonini, shu jumladan platskart vagonlar ulushini ko‘paytirishni;

budjeti past bo‘lgan xorijiy avia va temir yo‘l kompaniyalarini jalb etishni, shu jumladan “Rossiya temir yo‘llari” OAJ bilan hamkorlik qilish masalasini ko‘rib chiqishni nazarda tutsinlar.

*Oldingi tahrirga qarang.*

16. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat personallashtirish markazi O‘zbekiston Respublikasining xorijga chiqadigan fuqarolari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmatining Chegara qo‘shinlaridan kelib tushadigan zarur axborotni Komissiya, Davlat statistika qo‘mitasi hamda Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligiga har oy taqdim etsin.

*(16-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 20-sentabrdagi 748-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.09.2018-y., 09/18/748/2024-son)*

17. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi va O‘zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi bilan birgalikda respublika tashqarisiga vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun ketadigan fuqarolar uchun chegaradosh davlatlar qonunchiligining qoidalari va talablari tushuntirilgan videorolikni o‘n kun muddatda tayyorlasin hamda uning ommaviy axborot vositalarida muntazam e‘fira uzatilishini ta‘minlasin.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi tayyorlangan videorolikning chegaraldi bojxona postlaridagi monitorlarda muntazam namoyish etilishini ta‘minlasin.

18. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilishni o‘z zimnamda qoldiraman.

**O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV**

Toshkent sh.,  
2018-yil 23-yanvar,  
42-son

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-yanvardagi 42-son qaroriga  
1-ILOVA

**O‘zbekiston Respublikasidan tashqariga yo‘lovchi tashuvchi avtomobil transportida  
O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha doimiy faoliyat  
ko‘rsatuvchi Respublika komissiyasi**

**TARKIBI**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Ramatov A.J. — O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining birinchi o‘rinbosari —  
“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ boshqaruvi raisi, komissiya rahbari  
Xaitov A.A. — Bandlik va mehnat munosabatlari vaziri, komissiya rahbarining o‘rinbosari  
Raimov B.Y. — Davlat bojxona qo‘mitasi raisining birinchi o‘rinbosari, komissiya  
rahbarining o‘rinbosari  
Aripov K.M. — Favqulodda vaziyatlar vazirining birinchi o‘rinbosari  
Ergashev R.M. — Ichki ishlar vazirining o‘rinbosari  
Niyazxodjayev S.P. — Tashqi ishlar vazirining o‘rinbosari

Lavozimi bo'yicha	—	DXX Chegara qo'shinlari qo'mondoning birinchi o'rinbosari
Shoraxmetov Sh.Sh.	—	Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi raisining o'rinbosari
Asadov B.Z.	—	Savdo-sanoat palatasi raisining o'rinbosari
Shovaxabov Sh.Sh.	—	O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi boshlig'ining o'rinbosari
Xakimov B.I.	—	“O'zbekiston havo yo'llari” MAK bosh direktori v.b.
Shukurov A.S.	—	“O'zbekiston temir yo'llari” AJ boshqaruvi raisining birinchi o'rinbosari
Ibragimov R.R.	—	O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi Tashqi mehnat migratsiyasi agentligining boshlig'i
Javlonov Sh.S.	—	Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika kengashi raisining birinchi o'rinbosari
Xaytmuratov S.X.	—	Vazirlar Mahkamasining bosh mutaxassisi
Mirzayev J.A.	—	Vazirlar Mahkamasining sho'ba mudiri
Salixov F.M.	—	Vazirlar Mahkamasining sho'ba mudiri, komissiya kotibi

Izoh. Komissiya a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda uning tarkibiga ularning o'rniga yangidan tayinlangan yoxud zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.

*(1-ilova O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 29-maydagi 396-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 01.06.2018-y., 09/18/396/1287-son)*

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-yanvardagi 42-son qaroriga  
2-ILOVA

**Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularning profilaktikasi, shuningdek, xorijga ketayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining xavfsizligini ta'minlash bo'yicha hududiy ishchi guruhlarning**

**NAMUNAVIY TARKIBI**

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari, ishchi guruhlar rahbarlari.
2. Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi hududiy boshqarmasi boshlig'i, ishchi guruh rahbarining o'rinbosari.
3. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi Tashqi mehnat migratsiyasi agentligining mas'ul xodimi.
4. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Yong'in xavfsizligi bosh boshqarmasining mas'ul xodimi.
5. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Yo'l harakati xavfsizligi bosh boshqarmasining mas'ul xodimi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

6. Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari mas'ul xodimi.  
*(6-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 20-sentabrdagi 748-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 21.09.2018-y., 09/18/748/2024-son)*
7. Favqulodda vaziyatlar vazirligi hududiy boshqarmasi rahbari.
8. O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi hududiy boshqarmasi rahbari.
9. O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi mas'ul xodimi.
10. O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi mas'ul xodimi.
11. O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi hududiy bo'linmasi rahbari.
12. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika kengashi, “Nuroniy” jamg'armasi, O'zbekiston yoshlar ittifoqi va O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi mas'ul xodimlari, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlari mas'ul xodimlari.

Izoh. Ishchi guruh a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda uning tarkibiga ularning o'rniga yangidan tayinlangan yoxud zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-yanvardagi 42-son qaroriga  
3-ILOVA

### Davlat chegarasidan avtomobillarni o'tkazish punktlari

#### RO'YXATI

T/r	O'zbekiston Respublikasi		Chegaradosh davlatlar		O'tkazish punkti maqomi	Ish rejimi
	o'tkazish punkti nomi	joylashgan joyi	o'tkazish punkti nomi	joylashgan joyi		
<b>Qozog'iston chegarasidagi o'tkazish punktlari</b>						
1.	Daut-Ata	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Tajen	Mangistau viloyati	Xalqaro	Kecha-kunduz
2.	G'isht-Ko'prik	Toshkent viloyati	Jibek Joli	Janubiy Qozog'iston viloyati	Xalqaro	Kecha-kunduz
3.	Yallama	Toshkent viloyati	B. Konisbayev	Janubiy Qozog'iston viloyati	Xalqaro	Kecha-kunduz
4.	Zangiota	Toshkent viloyati	Kaplanbek	Janubiy Qozog'iston viloyati	Xalqaro	Kecha-kunduz
5.	Toshkent	Toshkent viloyati	Kazigurt	Janubiy Qozog'iston viloyati	Xalqaro	Kecha-kunduz
6.	Guliston	Sirdaryo viloyati	Atameken	Janubiy Qozog'iston viloyati	Xalqaro	Kecha-kunduz
7.	Oq oltin	Sirdaryo viloyati	Selinniy	Janubiy Qozog'iston viloyati	Ikki tomonlama	Sutkaning yorug' paytida
8.	Malik	Sirdaryo viloyati	Sirdaryo	Janubiy Qozog'iston viloyati	Ikki tomonlama	Sutkaning yorug' paytida
<b>Qirg'iziston chegarasidagi o'tkazish punktlari</b>						
1.	Do'stlik	Andijon viloyati	Dostuk	Osh viloyati	Xalqaro	Kecha-kunduz
2.	Xonobod	Andijon viloyati	Bekobod	Jalolobod viloyati	Xalqaro	Kecha-kunduz
3.	Madaniyat	Andijon viloyati	Madaniyat	Jalolobod viloyati	Xalqaro	Kecha-kunduz
4.	O'zbekiston	Farg'ona viloyati	Qizil-Qiya	Zotken viloyati	Ikki tomonlama	Kecha-kunduz
5.	Uchqo'rg'on	Namangan viloyati	Kensay	Jalolobod viloyati	Xalqaro	Kecha-kunduz
6.	Mingtepa	Andijon viloyati	Kara-Bagish	Osh viloyati	Ikki tomonlama	Sutkaning yorug' paytida

7.	Kosonsoy	Namangan viloyati	Baymak	Jalolobod viloyati	Ikki tomonlama	Sutkaning yorug' paytida
8.	Pushmon	Andijon viloyati	Seydikum	Jalolobod viloyati	Soddalashtirilgan	Sutkaning yorug' paytida
9.	Keskanyor	Andijon viloyati	Intimak	Osh viloyati	Ikki tomonlama	Sutkaning yorug' paytida
10.	Qoraqo'rg'on	Namangan viloyati	Sumsar	Jalolobod viloyati	Soddalashtirilgan	Sutkaning yorug' paytida
<b>Turkmaniston chegarasidagi o'tkazish punktlari</b>						
1.	Alat	Buxoro viloyati	Farap	Lebap viloyati	Xalqaro	Kecha-kunduz
2.	Talimarjon	Qashqadaryo viloyati	Tellimerjen	Lebap viloyati	Ikki tomonlama	Sutkaning yorug' paytida
3.	Drujba	Xorazm viloyati	Gazodjak	Lebap viloyati	Xalqaro	Sutkaning yorug' paytida
4.	Shavat	Xorazm viloyati	Dashoguz	Dashoguz viloyati	Xalqaro	Sutkaning yorug' paytida
5.	Xo'jayli	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Kunya-Urgench	Dashoguz viloyati	Xalqaro	Sutkaning yorug' paytida
<b>Tojikiston chegarasidagi o'tkazish punktlari</b>						
1.	Gulbahor	Surxondaryo viloyati	Ayvadj	Xatlon viloyati	Xalqaro	Kecha-kunduz
2.	Sariosiyo	Surxondaryo viloyati	Bratstvo	Tursunzoda tumani	Xalqaro	Kecha-kunduz
3.	Oybek	Toshkent viloyati	Fotexobod	So'g'd viloyati	Xalqaro	Kecha-kunduz
4.	Andarxon	Farg'ona viloyati	Patar	So'g'd viloyati	Xalqaro	Kecha-kunduz
5.	Jartepa	Samarqand viloyati	Sarazm	So'g'd viloyati	Xalqaro	Kecha-kunduz
6.	Ravot	Farg'ona viloyati	Ravot	So'g'd viloyati	Ikki tomonlama	Sutkaning yorug' paytida
7.	Bekobod	Sirdaryo viloyati	Xashtyak	So'g'd viloyati	Ikki tomonlama	Sutkaning yorug' paytida
8.	Pop	Namangan viloyati	Navbun'yod	So'g'd viloyati	Ikki tomonlama	Sutkaning yorug' paytida
9.	Plotina	Toshkent viloyati	Qo'shtegirmon	So'g'd viloyati	Ikki tomonlama	Sutkaning yorug' paytida

10.	Xovosobod	Sirdaryo viloyati	Zafarabad	So'g'd viloyati	Ikki tomonlama	Sutkaning yorug' paytida
11.	Uchturgan	Jizzax viloyati	Havotog'	So'g'd viloyati	Ikki tomonlama	Sutkaning yorug' paytida
12.	Ko'shkent	Jizzax viloyati	O'ra-tepa	So'g'd viloyati	Ikki tomonlama	Sutkaning yorug' paytida

*(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.01.2018-y., 09/18/42/0614-son, 01.06.2018-y., 09/18/396/1287-son, 21.09.2018-y., 09/18/748/2024-son)*